

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi
Buxoro viloyati o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi

BUXORO POLITEKNIKA KASB-HUNAR KOLLEJI

Qudratova M.R Bozorov A.S



Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maxsus kursni o'tishda ta'lim jarayonini tashkil etish uslubiy ishlanmasi



Buxoro – 2014 «Iste'dod»

BUXORO POLITEKNIKA KASB-HUNAR KOLLEJI

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maxsus kursni o'tishda ta'lim jarayonini tashkil etish uslubiy ishlanmasi

Mualliflar : **Qudratova M.R**

Buxoro Politeknika kasb hunar kolleji
o'qituvchisi

Bozorov A.S

Buxoro Politeknika kasb hunar kolleji
o'qituvchisi

Taqrizchilar : **Ochilov O'S**

Buxoro Davlat universiteti Tarix fakulteti
dekani

Hamdamova F.F


Buxoro Politeknika kasb hunar kolleji
Ijtimoiy Gumanitar kafedrasini mudiri

KENGASH QAROR QILADI:

1. M.R.Qudratova A.S Bozorovning "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maxsus kursni o'tishda ta'lim jarayonini tashkil etish » uslubiy ishlanmasi ta'lim jarayonida qo'llash uchun chop etilib ommalashtirishga tavsiya etilsin.

Kollej direktori:

Kotiba:



Bozorov.A.R.

Halimova N

Kirish

Mamlakatimizda kuchli huquqiy davlat barpo etishda, qonun va adolat ustuvorligiga erishishda iste'molchilar huquqini himoya qilish muhim rol o'ynaydi. Iste'molchilar huquqini himoya qilish natijasida fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati yuksaltirilib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Qonunchilik tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, qonunlarni hayotga izchil joriy qilish, barcha xo'jalik sub'ektlarining yuridik normalar va qoidalarga qat'iy amal qilishlarini ta'minlash madaniy – ma'rifiy bozorni shakllantirishning majburiy shartidir" deb ta'kidlagan edilar.

"Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi qonun bo'yicha maxsus kursning asosiy maqsadi iste'mol madaniyati mohiyatiga tushunib etish iste'molchilarning huquq va majburiyatlarini bilish "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun va unga aloqador hujjatlarning mazmunidan xabardor bo'lish o'quvchi yoshlarning iqtisodiy huquqiy iste'mol madaniyatini oshirishdan iborat.

Unga ko'ra fuqaro chakana oldi - sotdi shartnomasi orqali shaxsiy maqsadlar, ro'zg'orda yoki tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda tovar sotib olganda iste'molchi hisoblanadi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllantirilayotgan hozirgi davrda o'quvchi-yoshlar o'z huquqlarini bilishlari va majburiyatlarini bajara olishlari kerak. Buning uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan huquqiy normalarni bilishlari va unga rioya qilishlari lozim. SHu maqsadda akademik liqey va kasb-hunar kollejlarning 2-bosqich o'quvchilari uchun 16-soatlik "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi qonun hujjatlarini o'qitish bo'yicha o'quv dasturi ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy ishlanma ilk bor akademik liqey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun tayyorlangan bo'lib, o'quvchi yoshlarda iste'molchi huquqi bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maxsus kursning o'quv dasturi Mustaqil O'zbekiston uchun tayyorlanayotgan kadrlarning qonunchilik hujjatlarini amalga tadbqiq etish mexanizmlarini chuqur o'zlashtirib olishlariga imkon yaratadi.

Maxsus kursning maqsadi- fuqaro- iste'molchilarga qonun bilan belshgilangan iste'molchi sifatidagi huquqlarini o'rgatish, bu orqali esa bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilarni, sotuvchilarni, ish va xizmat bajaruvchilarni iste'molchilar huquqlarini buzadigan harakatlarga chek qo'yishda iste'molchilarning ishtirokini, ya'ni jamoatchilik ishtirokini ta'minlashdir. Uning shiori – « Iste'molchi! O'z huquqingni bil va uni himoya qilishni o'rgan." Bu orqali fuqarolarning iste'molchilik madaniyati va huquqiy bilimlarini oshirishdir. Maxsus kursning maqsadi, shuningdek iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik haqida aniq taassurotni shakllantirish hamda ushbu qonun hujjatlari bilan belgilangan huquqlari buzilganda ularni himoya qilishni o'rgatishga qaratilgandir.

Maxsus kursning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchi yoshlarni iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishni vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini hamda uning hozirgi kundagi maqomini o'rganish orqali mantiqiy fikrlash tajribasini egallashga ko'maklashish, o'quv kursining asosiy nazariyalarini mustahkamlashga ko'maklashish, o'quv kursining asosiy nazariyalarini mustahkamlashga ko'maklashish; amaliyotdagi aniq holatlar bo'yicha qonunni qo'llashga o'rgatish; o'z vaqtida qonun buzilish holatlarini aniqlash; davlatni huquqini muhofaza qilish organlariga va boshqa vakolatli organlarga murojaat qilish tartibini o'rgatishdir.

Maxsus kurs tinglovchilarda iste'molchilarning o'z huquqlarini bilish va joylarda ularni boshqalarga targ'ib qilish shu orqali esa iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga keng jamoatchikni jalb etishga qaratilgan.

№ 1. Mavzu: Qonunda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar

Iste'mol madaniyati haqida tushuncha.

Reja:

1. "Iste'molchi huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun va unga aloqador hujjatlar.
2. Maxsus kursning maqsadi va asosiy vazifalari.
3. Qonunda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar.
4. iste'mol madaniyatining tarkibiy qismlari.

Foydalanilgan adabiyotlar: .

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T. O'zbekiston 1999..
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi. - T. O'zbekiston. 2006.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. - T Adolat, 2006.
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Qonunchilik tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, qonunlarni hayotga izchil joriy qilish, barcha xo'jalik sub'ektlarining yuridik normalar va qoidalarga qat'iy amal qilishlarini ta'minlash madaniy – ma'rifiy bozorni shakllantirishning majburiy shartidir" deb ta'kidlagan edilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasining "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlanuvchi 9-bobi, 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonuni (Mazkur qonunga O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni, O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuniga muvofiq o'zgartishlar kiritilgan) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 noyabrdagi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 414-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Oldi-sotdi" deb nomlanuvchi 29-bobida oldi-sotdi shartnomasi taraflaridan biri sifatida iste'molchilarning huquqlarini ochib beruvchi belgilar mujassamlashgan.

“Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to’g’risida” gi qonun bo’yicha maxsus kursning asosiy maqsadi iste’mol madaniyati mohiyatiga tushunib etish iste’molchilarning huquq va majburiyatlarini bilish “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to’g’risida” gi qonun va unga aloqador hujjatlarning mazmunidan xabardor bo’lish o’quvchi yoshlarning iqtisodiy huquqiy iste’mol madaniyatini oshirishdan iborat.

Unga ko’ra fuqaro chakana oldi - sotdi shartnomasi orqali shaxsiy maqsadlar, ro’zg’orda yoki tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liq bo’lmagan maqsadlarda tovar sotib olganda iste’molchi hisoblanadi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllantirilayotgan hozirgi davrda o’quvchi-yoshlar o’z huquqlarini bilishlari va majburiyatlarini bajara olishlari kerak. Buning uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan huquqiy normalarni bilishlari va unga rioya qilishlari lozim.

Iste’molchi – Foyda chiqarib oish bilan big’liq bo’lmagan holda shaxsiy iste’molyoki boshqa maqsadlarda Tovar sotib olubchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi fuqaro (jismoniy shaxs).

Ishlab chiqaruvchi - istemoichiga realizasiya qilish uchun Tovar ishlab chiqaradi-gan korxona, tashkilot ,muassasa yoki yakka tartibda faoiyat ko’rsatuvchi tadbirkor.

Shartnoma –tovarni olish-sotishni amaiga oshirishda , ishlar bajarish va xizmatlar ko’rsatishda sifat, miqdor, muddat , narx va boshqa shartlar to’risida iste’molchni bilan sotuvni o’rtasidagi og’zaki yoki yozma kelishuv.

normativ hujjatlar — standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa xujjatlar (qurilish normalari va qoidalari, dori-darmonlar xususidagi davlat farmokopeyasi hamda muvaqqat farmokopeya qoidalari va boshqalar), texnik shartlar, texnik tavsiflar, retseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsizligiga nisbatan belgilangan talablarni uz ichiga oluvchi boshka xujjatlar;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi — tovarni iste’mol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida iste’molchining xayoti, sog’ligi yoki mol-mulkiga va atrof-muhitga zarar etkazilishi ehtimoli bilan bogliq xavf-xatarning yo`qligi;

muvofiglik sertifikat — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofigligini tasdiqlovchi hujjat;

tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni — tovar (ish, xizmat) va normativ xujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovarlar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda quyiladigan talablarga nomuvofigligi;

tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni — tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bulmaydigan qilib quyadigan yoxud bartaraf etish uchun kup mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik;

kafolat muddati — tovardan (xizmatdan) foydalanishning (oylar hisobidagi) normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, nechta ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o`tib va h.k) bajarish vaqti tarzida belgilangan muddati bulib, bu muddat ichida ishlab chikaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish (xizmatdan foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bulsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ xujjatlarda nazarda tutilgan talab- lar bajarilishini kafolatlaydi va ta`minlaydi;

xizmat muddati—tovardan foydalanishning belgilangan muddati bulib, u tamom bulgach, tovarning texnik xolatidan qat'iy nazar, undan foydalanish tugatilishi lozim;

yaroqailik (saqlash) muddati — muayyan davr bulib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli buladi va u tamom bulgach, tovarlar odamlar hayoti xamda sog`ligi uchun xavf tug`dirishi mumkin;

kassa cheki — tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi tulanligini tasdiklaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, xaq tulanligi sana va kassa apparatining nomeri ko`rsatilgan xujjat;

tovar cheki — tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning xaqi tulanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning baxosi, haq to`langan sana xamda sotuv- chining nomi va joylashgan manzili xaqadagi ma`lumot kursatilgan xujjat.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

TESTLAR:

1. Iste'molchilarning huduqlarini himoya qilish harakatlari ilk bor qaysi davlatlarda boshlangan?

- a) AQSh, Yaponiya, Rossiya, Xitoy, Germaniya.
- b) AQSh, Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy.
- v) Angliya, Germaniya, AQSh, Italiya, Franstiya.
- g) to'g'ri javob yo'q.

2. 1962 yil 15 martda Iste'molchilar huquqlarini tan olinishiga qaysi tarixiy shaxs sabab bo'ldi?

- a) J.Kennedi
- b) A.Maslou
- v) R.Neyder
- g) N.Xrushov

3. O'zbekiston Respublikasining qaysi qonun hujjatida iste'molchi huquqlari ustuvorligi tamoyili ilk bor o'rnatilgan?


- a) Fuqarolik kodeksi
- b) Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonuni.
- v) Konstitutiya
- g) Jinoyat kodeksi

4. BMT Bosh Assambleyasining "Iste'molchilar manfaatlarini himoyasi uchun rahbariy tamoyillar" deb nomlangan rezolyustiyasi qachon qabul kilingai?

- a) 1979 yilda 19 yanvarda
- b) 1981 yilda 7 mayda
- v) 1983 yilda 15 martda
- g) 1985 yil 9 aprelda

5. Qaysi qatorda Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati qonunchiligi e'lonqilingan iste'molchilarning asosiy huquqlari soni to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) 4 ta
- b) 8 ta
- v) 5 ta
- g) 7 ta



Uyga vazifa : **“iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risida”gi** qonunning 10 tasi yodlash va mavzuga doir krassvord tuzib kelish.

№2 MAVZU: Iste'molchilarning turmush darajasi. Ishlab chiqaruvchilar (ijrochi, sotuvchi), savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari.

R e j a :

1. Iste'molchi maqomining huquqiy tahlili.
2. Savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari.
3. BMT rezolyusiyasida aks ettirilgan iste'molchilarning asosiy huquqlari.

Fuqaro - iste'molchi fuqarolik huquqiy munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o'rtasida tuziladigan shartnomalar

huquqiy munosabatlar jumlasiga kiradi. Ushbu munosabatlar qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar, tovarni sotib olish, ishni bajarish, xizmatni ko'rsatish bilan bog'liq ayrim fuqarolik huquqiy shartnomalardan, jumladan oldi-sotdi shartnomalardan, ya'ni, chakana oldi-sotdi, ko'chmas mulkni sotish, energiya ta'minoti shartnomalaridan; uy-joy ijarasi shartnomasidan, shu jumladan, ijaraga topshirilgan uy-joy joylashgan binodan ijarachini tegishli ravishda foydalanishni amalga oshirish uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, zarur kommunal xizmatlar ko'rsatish yoki xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash, ko'p qavatlt uy-joy binolaridagi umumiy mool-mulkni va uy-joydagi kommunal xizmatlar ko'rsatish qurilmalarini ta'mirlashdan; pudrat shartnomasidan (maishiy pudrat, qurilish ishlari pudrati, loyihalash va qidiruv ishlari pudrati); prokat shartnomasidan; yulovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasidan; vositachilik shartnomasidan; omonat saqlash shartnomasidan; iste'molchi - fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishga oid shartnomalardan, jumladan fuqarolarga shaxsiy ehtiyojlari uchun kreditlar berish, bank omonati shartnomasidan, mijoz-fuqarolarning hisob raqamini ochish va yuritish, mijoz-ning tegishli ko'rsatmasiga asosan hisob-kitoblarni amalga oshirish, fuqarolarning qimmatli qog'ozlari va boshqa boyliklarini qabul qilish va ularni saqlash bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish, ularga turli maslahat xizmatlarini ko'rsatishdan; haq evaziga xizmat ko'rsatish (aloqa xizmati, tibbiyot, veterinariya, maslahat, axborot xizmatlari, ta'lim berish, sayyohlik xizmati va boshqalar) shartnomalaridan; va boshqa foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan, fuqarolarning shaxsiy extiyojini qondirishga qaratilgan boshqa shartnomalardan kelib chiqishi mumkinligini aytib o'tish lozim.

Ishlab chiqaruvchi o'z korxonasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili xaqida iste'molchini xabardor qilishi shart. Bunday ma'lumot ishlab chiqarish markasi yoki tovar belgisida kursatilgan bulishi yohud boshqa usulda taqdim etilishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) uz tashkilotining firma nomi, uning joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibini iste'molchiga ma'lum qilishi shart. Bunday ma'lumot markada aks ettirilishi lozim.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumot savdo va xizmat kursatish muvaqqat binolar, yarmarkalar, kuchma dukonchalar orqali amalga oshiril gan

yoki savdo va xizmat kursatish sotuvchi (ijrochi)ning doimiy joylashgan manzilidan tashqarida amalga oshirilgan boshqa xollarda ham iste'molchilar e'tiboriga etkazilishi kerak.

Sotuvchi (ijrochi) iste'molchiga tovarlar savdosi, maishiy va boshqa turdagi xizmat kursatishning qoidalari tug'risida to'liq ma'lumot berishi shart.

Qonunning ushbu moddasi iste'molchilarning ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, ijrochi haqida ma'lumot olishga bulgan xuquqlarini ta'minlashga qaratilgan moddalardan biridir. Iste'molchining ishlab chiqaruvchining korxonasi xaqida yetarli ma'lumotga ega bulishi, uning iste'molchi sifati- dagi xuquqlarini amalga oshirishida muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqaruvchi iste'molchiga uzining tashkiliy-xuquqiy tuzilishi, yuridik manzili xaqida yetarli ma'lumot taqdim etishi lozim. FKning 1098-moddasida ishlab chiqarish korxonasining nomi uning uzini, ishlab chiqargan tovarlarini, bajargan ishlarini, ko'rsatgan xizmatlarini farqlovchi, xabardor qiluvchi vosita, belgi sifatida e'tirof etilishi xamda undan foydalanish huquqi faqat unga tegishliligi, bu xukuq mutlak xukuk ekanligi belgilangan. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga nom berish tartibi Fuqarolik kodeksi xamda Uzbekistan Respublikasida ma'muriy-xududiy tuzilish, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini uzgartirish tartibi tug'risida 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan Qonun bilan tartibga solinadi. FKning 1099-moddasida belgilangan qoidaga asosan yuridik shaxsning nomidan u ishlab chiqargan tovar, bajargan ish, kursatgan xizmat belgisida foydalanish mumkin.

"Iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishning rahbariy tamoyillari" deb nomlangan N 39/248 sonli Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Bosh Assambleyasi tomonidan 9 aprel 1985 yilda qabul qilingan rezolyustiyada aks ettirilgan iste'molchilarning asosiy huquqlari quyidagilar:

1. Tovarlar(ishlar, xizmatlar)ning xavfsizligiga bo'lgan huquq;
2. Ma'lumot olishga bo'lgan huquq;
3. Tovarini tanlashga bo'lgan huquq;
4. O'z qiziqishlarini bildirishga bo'lgan huquq;
5. Asosiy extiyojlarni qondirishga bo'lgan huquq;
6. Zararni undirishga bo'lgan huquq;
7. Iste'molchilik haqida bilim olishga bo'lgan huquq;

8. Sogʻlom atrof-muhitga boʻlgan huquq '.

Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EIH)ning qonunchilik dasturida eʼlon qilingan isteʼmolchilarning asosiy huquqlari quyidagilar:

1. Hayoti, sogʻligʻining himoyasiga, tovar(ish, xizmat)larning xavfsizligiga boʻlgan huquq;
2. Iqtisodiy manfaatlarini himoyasiga boʻlgan huquq;
3. Etkazilgan zararining oʻrnini qoplatishga boʻlgan huquq;
4. Maʼlumot va bilim olishga boʻlgan huquq;
5. Vakolatga, takdim etishga boʻlgan huquq .

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

TESTLAR:

1. **Isteʼmolchi qaysi javobda toʻliq izohlangan:**
 - a) biologik mavjudot-inson-jismoniy shaxs-xaridor
 - b) sotib oluvchi-buyurtmachi-fuqaro-jislyuniy shaxs
 - v) inson-fuqaro-tadbirkor-jismoniy shaxs
 - g) inson-fuqaro-jismoniy shaxs-xaridor
2. **Qonunda isteʼmolchining huquqlarini nechitasi asosiylari sifatida eʼtirof etilgan**
 - a) oltitasi
 - b) ettitasi
 - v) sakkiztasi
 - g) beshtasi
3. **Qonuning qaysi moddalari isteʼmolchilarning maʼlumot olishiga boʻlgan huquqiga bagʻnshlangan**
 - a) beshinchi, oltinchi va oʻn ikkinchi
 - b) toʻrtinchi, beshinchi va oltinchi
 - v) beshinchi va oltinchi
 - g) oltinchi, sakkizinchi va oʻn uchinchi
4. **Ishlab chiqaruvchi qanday maʼlumotni isteʼmolchiga taqdim etishi**

lozim?

- a) korxona nomi, joylashgan (yuridik) manzili, savdo va xizmat ko'rsatish qoidolari, ruyxatga olish va listenziya guvohnomasi nomeri
- b) korxona nomi, faoliyat turi, joylashgan (yuridik) manzili, ish tartibi
- v) korxona nomi, ishlab chiqarish markasi, joylashgan (yuridik) manzili, listenziya guvohnomasi nomeri
- g) korxona nomi, joylashgan (yuridik) manzili, ish tartibi, ro'yxatga olish nomeri

5. Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda nimalar ko'rsatilishi shart?

- a) bahosi va sotib olish shartlari; ishlab chiqarilgan sana; kafillik majburiyatlari; tovardan xavfsiz foydalanish qoidolari; xizmatga (yaroqlilik) muddati; ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) hakida ma'lumot; sertifikat nomeri.
- b) asosiy iste'mol va o'ziga xos xususiyatlar ruyxati; bahosi va sotib olish shartlari; ishlab chiqarilgan sana; kafillik majburiyatlari; tovardan xavfsiz foydalanish qoidolari; xizmatga (yaroqlilik) muddati; ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida ma'lumot; sertifikat nomeri.
- v) asosiy iste'mol va o'ziga xos xususiyatlar ruyxati; bahosi va sotib olish shartlari; ishlab chiqarilgan sana; kafillik majburiyatlari; xizmatga (yaroqlilik) muddati; ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida ma'lumot; sertifikat nomeri.
- g) o'ziga xos xususiyatlar ruyxati; bahosi va sotib olish shartlari; ishlab chiqarilgan sana; kafillik majburiyatlari; tovardan xavfsiz foydalanish qoidolari; xizmatga (yaroqlilik) muddati; tovarni yo'q qilish qoidolari; ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida ma'lumot.

6. Tovar sifatiga qaysi qatorda to'g'ri javob berilgan?


- a) sifat shunday mavjud turga xos alomatki, u bir mavjudlikni, uning turiga xosligini boshqa mavjudlikdan, xuddi shu turga kiruvchidan ajratadi
- b) sifat - muhim belgi, xususiyat bo'lib, bir predmetni ikkinchi predmetdan ajratish imkonini yaratadi
- v) sifat bu - birinchi galda farq, ikkinchi galda ishonch, uchinchi galda baho, to'rtinchi galda obro'ni belgilaydi.
- g) sifat- narsalarni takqoslab baholashga oid xususiyatdir.


7. Tovar (ish, xizmat) xavfsizligi deganda nima tushuniladi?

- a) iste'molchiga sotilgan tovar, ko'rsatilgan ish (xizmat) natijasi undan oddiy sharoitlarda foydalanganda, saqlaganda, tashilganda hamda yo'q qilinganda, uning hayoti, sog'lig'i, hamda atrof muhitga xavfsiz bo'lishi va uning mol-mulkiga zarar etkazmasligi tushuniladi
- b) tovar (ish, xizmat)dan foydalanish natijasida iste'molchiga hech qanday zarar (moddiy ziyon, ma'naviy zarar) etmasligi tushuniladi
- v) Tovar (ish, xizmat) xavfsizligi deganda, zarar etkazilishi mumkin degan xavfga yo'l qo'yilmaslik holatiga aytiladi.
- g) Tovar (ish, xizmat)lar ulardan mo'ljallangan maqsadga muvofiq va boshqa maqsadda foydalanishda xavfsiz bo'lishiga aytiladi.

8. Iste'molchi qay ko'rinishdagi zararlarni undirishi mumkin?

- a) hayoti, sog'lig'iga etkazilgan zararni, mol-mulkiga etkazilgan moddiy ziyonni, olinmay qolgan foydani
- b) hayoti, sog'lig'iga etkazilgan zararni, moddiy ziyonni va ma'naviy zararni
- v) hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zararni, olinmay qolgan foydani, ma'naviy zararni
- g) moddiy ziyonni, olinmay qolgan foydani va ma'naviy zararni





Uyga vazifa : “**iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risida**”gi qonunning 10 tasi yodlash va mavzuga doir krassvord tuzib kelish.

№3 M AVZU : Mahsulotlar haqida tushuncha .Ishlab chiqaruvchilarning iste'molchilar oldidagi majburiyatlari.

R e j a :

- 1.Mahsulotlar haqida tushucha
2. Reklamaning afzalliklari va kamchiliklari
3. Shtrix kod nimani yashiradi.
4. Ishlab chiqaruvchilarning iste'molchilar ldidagi majburiyatlari.

Mahsulotlar haqida tushuncha. Iste'molchilarga tovar (ish, xizmat) haqida ma'lumotlarni taqdim etishning alohida usullari, ommaviy axborot vositalaridagi, ya'ni matbuotdagi, radio va televidenie hamda internetdagi reklama. Reklamaning mazmuni, reklama siyosati. Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizastiya qilayotgan tovar (ish, xizmat) lar sertifikatlanganligi haqida ma'lumotlar taqdim etadi. 1997 yil 30 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida” gi Qonun qabul qilingan.

REKLAMA - ommaviy axborot vositalarida iste'molcnilarga Tovar haqida ma'lumot berish bilan ularning tovarga bo'lgan talabini oshirishga qaratilgan tashviqot tadbiri(reklama so'zi lotincha jar solish chaqiriq degan ma'noni anglatadi.

Afzalliklari	Kamchiliklari
- reklama iste'molchilar manfaatiga xizmat qiladi, chunki iste'molchilarni bozirdagi narxlar va yangiliklardan	- reklama ba'zida iste'molchilarga noto'g'ri axborot berib

xabardor qiladi; - reklama ko'pincha narxlar pasayishiga olib keladi. - Reklama raqobatni raqbatlantiradi va bundan iste'molchilar va butun jamiyat yutadi. - Reklamadan tushadigan daromad ommaviy axborot vositalari -gazeta va jurnallar , tijorat radio va televideniya tarmoqlari xarajatlarining katta qismini qoplaydi; - Reklama iste'molchilar talabini ko'payishi va buning natijasida iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi.	chalkashtiradi. - reklama katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi , bu esa tovarning narxini oshiradi; - iste'molchilarda uncha zarur bo'lmagan tovarlarga pul sarflash maylini keltirib chiqaradi. - Ommaviy axborot vositalari reklama beruvchilarga qaram bo'lib qoladi , bu esa ularning erkinligini cheklaydi.
---	--

Iste'molchi sifatida huquqlaringiz O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar ning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi " qonun bilan himoya qilinadi. Tovarni xarid qilayotganda , uning narxidan tashqari quyidagi narsalarga e'tibor berish kerak ; tovar sifatini tasdiqlovchi hujjatning bor-yo'qligiga, tovar yorlig'ining bo'lishi va unda Tovar ishlab chiqaruvchining nomi, tovarning o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati, Tovar tayyorlangan sana, tovarni saqlash muddati , sotuvchining kafolat majburiyatlari, shtrix kodi, tovardan foydalanish va uni saqlash qoidalari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

TOVARNING SHTRIX KODIDA NIMALAR YASHIRILGAN.

Tovarning kodi o'ziga xos ma'lumot manbai bo'lib, undan tovarning qaysi davlatda tayyorlanganligi , qaysi korxona ishlab chiqarganligini va Tovar haqidagi ma'lumotlarni aniqlab olish mumkin. Tovarning kodi yordamida tovarning qalbaki

yoki haqiqiy ekanligini quyidagi sodda arifmetik nisob-kitoblar yordamida bilib olish mumkin;

1. chapdan o'ngga timon juft o'rnida turgan raqamlar qo'shib chiqiladi:
 $7+0+3+2+0+3=15$;
2. chiqqan natija 3 ga ko'paytiriladi; $15 \times 3=45$;
3. toq o'rnida turgan, oxirgi nazorat raqamidan tashqari raqamlar qo'shib chiqiladi:
 $8+1+3+5+3+4=24$;
4. 2- natija bilan 3- natija qo'shiladi: $45+24=69$;
5. chiqqan sonning oxirgi raqami 10 dan ayiriladi: $10-9=1$;
6. Oxirgi natija tovar kodining nazorat raqami bilan bir xil bo'lsa, Tovar haqiqiy, aks holda - qalbaki bo'ladi.


13 ta raqamdan iborat mahabu shtrix kodning 8710335230431 birinchi ikki raqami 87 – tovarning Gollandiyada tayyorlanganligini, keyingi 5 ta raqam 10335 - Tovar ishlab chiqargan firmani, keyingi 5 ta raqam 23043 - tovarning xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Ishlab chiqaruvchilarning iste'molchilar oldidagi majburiyatlari. Ishlab chiqaruvchi ijrochining uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdagi tovarlar va xizmatlariga kafolat muddati belgilash, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati mobaynida tovar (xizmat)ning, shu jumladan butlovchi buyumlarning normal ishlashini (qo'llanilishini), ulardan foydalanilishini ta'minlashi, sotilgan mahsulotlar uchun talab qilinganda texnik xizmat ko'rsatish, zarur hollarda almashtirish, ta'mirlash ishlarini bepul tashkil qilish. Ishlab chiqaruvchi tomonidan iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan tovarlarni muomaladan chiqarish. Yaroqsiz tovarlarni sotib olgan iste'molchilarga etkazilgan zararni ishlab chiqaruvchi tomonidan to'liq hajmda qoplash.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iste'molchiga tovar haqida ma'lumotlarni taqdim etishning qanday usullari mavjud?
2. Reklama haqida nima bilasiz?
3. Tovar xarid qilayotganda uning narxidan tashqari nimalarga e'tibor berish kerak?

4. Tovar shtrix kodi nima?
5. Tovar shtrix kodida nimalar yashiringan?
6. Ishlab chiqaruvchining iste'molchi oldidagi majburiyatlarini sanab o'ting?



Uyga vazifa :“**Iste’molchilar huquqini himoya qilish to’g’risida**”gi qonunning 10 moddasini yodlash va mavzuga doir krassvord tuzib kelish.

№4 MAVZU : Xarid qilish madaniyati. Savdo – sotiq qoidalari.

R e j a :

- 1.Savdo va xizmat ko’rsatish qoidalari.
2. Xaridorning iste’mol madaniyati.
3. Iste’molchi nimani bilishi kerak.

Ishlab chiqaruvchi o’z korxonasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili haqida iste’molchini xabardor qilishi shart . Bunday ma’lumot ishlab chiqarish markasi yoki Tovar belgisida ko’rsatilgan bo’lishi yoxud boshqa usulda taqdim etilishi lozim.Sotuvchi (ijrocn) o’z tashkilotining firma nomi , uning joylashgan manzili va ish tartibini iste’molchiga ma’lum qilishi shart.Bunday ma’lumot lavhada aks ettirilishi lozim. Yuqorida ko’rsatilgan ma’lumotlar savdo va xizmat ko’satish muvaqqat binolar, yarmarkalar, ko’chma do’konchalar orqali amalga oshirilgan yoki savdo va xizmat ko’rsatuvchi , sotuvchining doimiy joulashgan manzilidan tashqari amalga oshirilgan boshqa hollar , ham iste’molchilar e’tiboriga yetkazilishi kerak. Sotuvchi (ijrocn) iste’molchiga tovarlar savdosi , maishiy va boshqa turdagi xizmatlar ko’rsatishning qoidalari to’g’risida to’liq ma’lumot berishi shart.

Haridorning iste’mol madaniyati. Haridorning tovar (xizmat) turlarini tanlash, harid qilishda iste’molchi odobiga rioya qilish. Savdo-sotiq qoidalari, chakana savdo qoidalari. O’zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarining umumiy tavsiloti. Iste’mol qilingan mollarga haq to’lash shakllari.

Mavzuda iste’molchini fuqarolik-huquqiy shartnomalarda ishtirokining huquqiy holati va uni o’ziga xosligiga to’xtalib o’tiladi. Iste’molchi ishtirokidagi shartnomalarni boshqa shartnomalardan farki haqida, hamda ularni tuzish va rasmiylashtirishning o’ziga xosligiga alohida e’tibor beriladi. Shartnoma sub’ektlarini huquq va majburiyatlariga, hamda iste’molchining ustuvorligi prinstipi to’g’risida fikr yuritiladi. Shu bilan birga ushbu mavzuda iste’molchilar o’zlarining buzilgan huquqlarini tiklash yoki buzilishi

mumkin bo'lgan holatni bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi. Iste'molchi-fuqaro sifatida o'zining buzilgan yoki buzilishi mumkin bulgan huquqlarini himoya qilish tartibi, ya'ni qaysi davlat organiga yoki nodavlat tashkilotiga murojaat qilish mumkinligi, murojaat qilish tartibi, ariza yozish, uni rasmiylashtirish, turli vaziyatlarda o'z huquqlarini amalga oshirish doirasida tutish tartibi o'rganiladi.

Iste'molchilar bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi munosabatlar buzilishi va buning natijasida zarar, ziyon etkazilishi turli vaziyatlarda, asoslarda va shakllarda bo'ladi. Alohida yodda tutish kerak-ki, iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi munosabatlar deyarli barcha hollarda shartnomalardan kelib chiqadi. Shuning uchun zarar shartnoma shartlarini buzish natijasida yuzaga kelishi mumkin, hamda shartnomadan tashqari zarar etkazishdan kelib chiqishi mumkin. Shu-ningdek eng muhimi va o'ziga xosligi shundaki iste'molchiga moddiy ko'rinishdagi zarar biron bir topshirilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat natijasidan foydalanishda yuzaga kelishidan tashqari, hali hech qanday tovar (ish, xizmat) sotib olmasdan (buyurtma bermasdan) iste'molchining asosiy huquqlarini buzulishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Jumladan, iste'molchining ma'lumot olishga bo'lgan huquqini buzish natijasida etkazilgan moddiy ziyon va ma'naviy zarar. Zarar albatta huquqqa xilof qilmish, harakat yoki harakatsizlik natijasida yuzaga kelishini ham yodda tutmoq lozim.

Iste'molchilar quyidagilarni bilishi kerak :

1. Iste'molchilar Tovar va uni ishlab chiqaruvchi korxona tog'risida quyidagi ishonarli va to'la axborotni olish huquqiga ega ;
 - Tovarining tegishli sifat ko'satgichlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat,
 - tovarning iste'mol va oziga xos xususiyatlarining ro'yxati,
 - tovarning narxi,
 - Tovar tayyorlangan sana,
 - tovardan foydalanish qoidalari va shartlari,
 - Tovarining xizmat(yoki saqlash) muddati,
 - ishlab chiqaruvchining tovardan foydalanish bo'yicha kafolat majburiyatlari,
 - tovarni saqlash usullari va qoidalari.

2. Tovar sanitariya- gigyena talablariga javob berishi va inson salomatligiga hamda atrof muhitga xavfsiz bo'lishi lozim. ishlab chiqaruvchi tovarning butun xizmat muddati mobaynida , agar u belgilanmagan bo'lsa , unda u sotilgan kundan boshlab 10 yil mobaynida tovarning xavfsiz bo'lishini ta'minlashi lozim.
3. Agar iste'molchi nuqsonli Tovar sotib olgan bo'lsa, u xohishiga ko'ra quyidagilarni talab qilishga haqli :
- nuqsonli tovarni tegishli sifatga ega bo'lgan xuddi shunday tovarga ayirboshlash
 - boshqa shunga o'xshash tovarga , xarid narxini tegishli hisob-kitob qilish yo'li bilan ayirboshlash,
 - ishlab chiqaruvchidan Tovar kamchiliklarini bepul tuzatib berish yoki tuzatish xarajatlarini qoplatish,
 - nuqsonli Tovar narxini tegishli miqtorda kamaytirish,
 - yetkazilgan zararni to'la hajmda qoplash sharti bilan , nuqsonli tovarni ishlab chiqaruvchiga qaytarish.
4. Iste'molchi bu huquqlardan , Tovar sotib olgan kundan boshlab , tovarning kamchiliklari aniqlangan quyidagi muddatgacha foydalanishi mumkin:
- kafolat muddati yoki ishga yaroqlilik muddati ichida,
 - kafolat muddati yoki ishga yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar uchun --6 oy, ko'chmas mulk -- 2 yil (agar shartnomada boshqa uzoqroq muddat belgilanmagan bo'lsa).
5. Iste'molchilarning talablari tovarni aynan shu ishlab chiqaruvchi (sotuvchidan) sotib olganligini tasdiqlovchi tegishli hujjat(masalan, kassa cheki, tovarning hujjati) taqdim etilgandagina ko'rib chiqiladi.
6. Qonunda ko'rsatilgan bu huquqlar buzilganda va tomonlar murosaga kelmaganda , sudga yoki davlatning boshqa vakolatli organlariga murojaat qilish mumkin.
7. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida joylarda jamoa birlashmalarini tashkil qilish mumkin.

Ishlab chiqaruvchi o'z korxonasining nomi va joy (yuridik) manzili xaqida iste'molchini xabar qilishi shart. Bunday ma'lumot ishlab chiqarish tovar belgisida kursatilgan bulishi yoxud boshqa usulda taqdim etilishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) o'z tashkilotining firma nomi, uning joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibini iste'molchiga ma'lum qilishi shart.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumot savdo va xizmat kursatish muvaqqat binolar, yarmarkalar, ko'chma do'konchalar orqali amalga oshirilgan yoki savdo va xizmat kursatish sotuvchi (ijrochi)ning doimiy joylashgan manzilidan tashqarida amalga oshirilgan boshqa xollarda ham iste'molchilar e'tiboriga etkazilishi kerak.

Sotuvchi (ijrochi) iste'molchiga tovarlar savdosi, maishiy va boshqa turdagi xizmat kursatishning qoidalari tug'risida to'liq ma'lumot berishi shart.

Qonunning ushbu moddasi iste'molchilarning ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, ijrochi xaqida ma'lumot olishga bulgan huquqlarini ta'minlashga qaratilgan moddalardan biridir. Iste'molchining ishlab chiqaruvchining korxonasi haqida yetarli ma'lumotga ega bulishi, uning iste'molchi sifati- dagi xuquqlarini amalga oshirishida muxim ahamiyatga ega. Ishlab chiqaruvchi iste'molchiga o'zining tashkiliy-xuquqiy tuzilishi, yuridik manzili xaqida yetarli ma'lumot taqdim etishi lozim. FKning 1098-moddasida ishlab chiqarish korxonasining nomi uning o'zini, ishlab chiqargan tovar- larini, bajargan ishlarini, kursatgan xizmatlarini farqlovchi, xabardor qiluvchi vosita, belgi sifatida e'tirof etilishi xamda undan foydalanish xuquqi faqat unga tegishliligi, bu xuquq mutlaq xuquq ekanligi belgilangan. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga nom berish tartibi Fuqarolik kodeksi xamda Uzbekistan Respublikasida ma'muriy-xududiy tuzilish, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish tartibi tug'risida 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan Qonun bilan tartibga solinadi. FKning 1099-moddasida belgilangan qoidaga asosan yuridik shaxsning nomidan u ishlab chiqargan tovar, bajargan ish, ko'rsatgan xizmat belgisida foydalanish mumkin.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iste'molchi sotuvchiga talab qo'yishi uchun nima asos bo'ladi?
2. Tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri ma'lumotlar berilganda uni keltirib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarini aytib bering.
3. Iste'molchiga noto'g'ri (etarli bo'lmagan, tushunarsiz) ma'lumot taqdim etilganda uning huquqlari.

4. Iste'molchilar huquqlarini buzganlik uchun ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning javobgarligi.
5. Qaysi hollarda ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod kilinadi?
6. Iste'molchining qonuniy talablarini sotuvchi (ishlab chikaruvchi, ijrochi) tamonidan o'z xohishiga ko'ra bajarmaganda iste'molchining huquq, lari.
7. Iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mulkiga etkazilgan zararni qoplash tartibi.
8. Tovar (ish, xizmat) nuqsonlari natijasida etkazilgan zarar qoplanishini iste'molchidan boshqa kimlar talab qilishi mumkin?
9. Qaysi hollarda tovar (ish, xizmat) nuqsonlari natijasida etkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ishlab chikaruvchi (ijrochi, sotuvchi) ozod qilinadi?
10. Iste'molchiga kamchiliklari mavjud tovar sotilganda qanday huquqlarga ega bo'ladi?

**ISTE'MOLCHILAR NIMANI
BILISHI KERAK?**

1. -- Tovarning tegishli sifat ko'satgichlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat,

5. tovardan foydalanish qoidalari va shartlari

2. tovarning iste'mol va oziga xos xususiyatlarining ro'yxati,

6. Tovarning xizmat(yoki saqlash) muddati

3 tovarning narxi

7. ishlab cniqaruvchining tovardan foydalanish bo'yicha kafolat majburiyatlari

4. Tovar tayyorlangan sana

8. tovarni saqlash usullari va qoidalari

R e j a :

1. Xizmat ko'rsatish qoidalari.
2. Iste'molchining fuqafolik huquqiy munosabatlardagi muhim o'рни.
3. Iste'molchi nimani bilishi kerak.
4. Iste'molchilar buzilgan huquqlarini himoya qilish tartibi.

Ishlab chiqaruvchi o'z korxonasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili haqida iste'molchini xabardor qilishi shart. Bunday ma'lumot ishlab chiqarish markasi yoki Tovar belgisida ko'rsatilgan bo'lishi yoxud boshqa usulda taqdim etilishi lozim. Sotuvchi (ijrocn) o'z tashkilotining firma nomi, uning joylashgan manzili va ish tartibini iste'molchiga ma'lum qilishi shart. Bunday ma'lumot lavhada aks ettirilishi lozim. Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar savdo va xizmat ko'satish muvaqqat binolar, yarmarkalar, ko'chma do'konchalar orqali amalga oshirilgan yoki savdo va xizmat ko'rsatuvchi, sotuvchining doimiy joylashgan manzilidan tashqari amalga oshirilgan boshqa hollar, ham iste'molchilar e'tiboriga yetkazilishi kerak. Sotuvchi (ijrocn) iste'molchiga tovarlar savdosi, maishiy va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatishning qoidalari to'g'risida to'liq ma'lumot berishi shart.

Fuqaro - iste'molchi fuqarolik huquqiy munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o'rtasida tuziladigan shartnomalar huquqiy munosabatlar jumlasiga kiradi. Ushbu munosabatlar qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar, tovarni sotib olish, ishni bajarish, xizmatni ko'rsatish bilan bog'liq ayrim fuqarolik huquqiy shartnomalardan, jumladan oldi-sotdi shartnomalardan, ya'ni, chakana oldi-sotdi, ko'chmas mulkni sotish, energiya ta'minoti shartnomalaridan; uy-joy ijarasi shartnomasidan, shu jumladan, ijaraga topshirilgan uy-joy joylashgan binodan ijarachini tegishli ravishda foydalanishni amalga oshirish uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, zarur kommunal xizmatlar ko'rsatish yoki xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash, ko'p qavatlt uy-joy binolaridagi umumiy mol-mulkni va uy-joydagi kommunal xizmatlar ko'rsatish qurilmalarini ta'mirlashdan; pudrat shartnomasidan (maishiy pudrat, qurilish ishlari pudrati, loyihalash va qidiruv ishlari pudrati); prokat

shartnomasidan; yulovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasidan; vositachilik shartnomasidan; omonat saqlash shartnomasidan; iste'molchi - fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishga oid shartnomalardan, jumladan fuqarolarga shaxsiy ehtiyojlari uchun kreditlar berish, bank omonati shartnomasidan, mijoz-fuqarolarning hisob raqamini ochish va yuritish, mijozning tegishli ko'rsatmasiga asosan hisob-kitoblarni amalga oshirish, fuqarolarning qimmatli qog'ozlari va boshqa boyliklarini qabul qilish va ularni saqlash bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish, ularga turli maslahat xizmatlarini ko'rsatishdan; haq evaziga xizmat ko'rsatish (aloqa xizmati, tibbiyot, veterinariya, maslahat, axborot xizmatlari, ta'lim berish, sayyohlik xizmati va boshqalar) shartnomalaridan; va boshqa foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan, fuqarolarning shaxsiy ehtiyojini qondirishga qaratilgan boshqa shartnomalardan kelib chiqishi mumkinligini ay

tib o'tish lozim

1. Iste'molchilar Tovar va uni ishlab chiqaruvchi korxona tog'risida quyidagi ishonarli va to'la axborotni olish huquqiga ega ;

- Tovarining tegishli sifat ko'rsatkichlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat,
- tovarning iste'mol va oziga xos xususiyatlarining ro'yxati,
- tovarning narxi,
- Tovar tayyorlangan sana,
- tovardan foydalanish qoidalar va shartlari,
- Tovarining xizmat(yoki saqlash) muddati,
- ishlab chiqaruvchining tovardan foydalanish bo'yicha kafolat majburiyatlari,
- tovarni saqlash usullari va qoidalar.

2. Tovar sanitariya- gigyena talablariga javob berishi va inson salomatligiga hamda atrof muhitga xavfsiz bo'lishi lozim. ishlab chiqaruvchi tovarning butun xizmat muddati mobaynida , agar u belgilanmagan bo'lsa , unda u sotilgan kundan boshlab 10 yil mobaynida tovarning xavfsiz bo'lishini ta'minlashi lozim.

3. Agar iste'molchi nuqsonli Tovar sotib olgan bo'lsa, u xohishiga ko'ra quyidagilarni talab qilishga haqli :

- nuqsonli tovarni tegishli sifatga ega bo'lgan xuddi shunday tovarga ayirboshlash

- boshqa shunga o'xshash tovarga , xarid narxini tegishli hisob-kitob qilish yo'li bilan ayirboshlash,
 - ishlab chiqaruvchidan Tovar kamchiliklarini bepul tuzatib berish yoki tuzatish xarajatlarini qoplatish,
 - nuqsonli Tovar narxini tegishli miqtorda kamaytirish,
 - yetkazilgan zararni to'la hajmda qoplash sharti bilan , nuqsonli tovarni ishlab chiqaruvchiga qaytarish.
4. Iste'molchi bu huquqlardan , Tovar sotib olgan kundan boshlab , tovarning kamchiliklari aniqlangan quyidagi muddatgacha foydalanishi mumkin:
- kafolat muddati yoki ishga yaroqlilik muddati ichida,
 - kafolat muddati yoki ishga yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar uchun --6 oy, ko'chmas mulk -- 2 yil (agar shartnomada boshqa uzoqroq muddat belgilanmagan bo'lsa).
5. Iste'molchilarning talablari tovarni aynan shu ishlab chiqaruvchi (sotuvchidan) sotib olganligini tasdiqlovchi tegishli hujjat(masalan, kassa cheki, tovarning hujjati) taqdim etilgandagina ko'rib chiqiladi.
6. Qonunda ko'rsatilgan bu huquqlar buzilganda va tomonlar murosaga kelmaganda , sudga yoki davlatning boshqa vakolatli organlariga murojaat qilish mumkin.
7. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida joylarda jamoa birlashmalarini tashkil qilish mumkin.

Iste'molchilar buzilgan huquqlarini himoya qilish tartibi quyidagicha:

- 1.O'z-o'zini himoya qilish;
2. Advokat yordamida himoya qilish;
3. Jamoat birlashmalari orqali himoya qilish;
4. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan himoya qilish;
5. O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasi tomonidan;
6. Sud tomonidan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iste'molchi sotuvchiga talab qo'yishi uchun nima asos bo'ladi?

2. Tovarning kafolat muddati va xizmat ko'rsatish muddatini hisoblash tartibi qanday?
3. Kamchiliklari bilan sotib olingan tovarlar bo'yicha iste'molchining talablari qo'yilishi va ularni qondirilishi tartibini ko'rsating?
4. Almashtirilishi yoki qaytarib olinishi lozim bo'lgan tovarlarning etkazib berishning qanday tartibi o'rnatilgan?
5. Sotib olingan tovarda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan iste'molchining talab qo'yish muddatlari qanday?
6. Sotib olingan tovarlarda aniqlangan kamchiliklarni tuzatish uchun qanday muddatlar o'rnatilgan?
7. Kamchiliklari bilan sotib olingan tovarni almashtirish muddati qanday?
8. Iste'molchi - sotib oluvchining qo'ygan talablari bajarilmaganda o'rnatiladigan neustoyka miqdori qanday?

№6 MAVZU : Nuqsonli tovar tushunchasi. Iste'molchilarga nuqsonli tovar (xizmat) sotilganda uning huquqlari .

R e j a :

1. Iste'molchiga nuqsonli Tovar sotilganda uning huquqlari.
2. Nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibi.
3. Tovar nuqsonlarini bepul bartaraf etish tartibi.
4. Iste'molchiga nuqsonli Tovar sotilgan taqdirda u bilan hisob-kitob qilish .

1. Nuqsonli tovar sotilgan iste'molchi , agar bu hol shartnoma tuzish paytida aytib o'tilmagan bo'sa , o'z xoxishiga qarab quyidagilardan birini talab qilishga haqli:-- tovarni ayni shunday markali maqbul sifatli tovarga almashtirib berish;

-tovarni boshqa markali shunday tovarga almashtirib , uning xarid narxini qayta hisob-kitob qilish.

- tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yoxud uchinchi shaxsni nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash,
- xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish.
- shartnomani bekor qilib , ko'rilgan zararni qoplash.

Iste'molchining talablari u kassa cheki yoki Tovar chekini , kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa, tegishli rasmiylashtirilgan texnik passport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatlar taqdim etgan taqdirda ko'rib chiqiladi.

2. Iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga , tuzilishiga tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali tovarga yeti kunlik muddatda , Tovar sifatini sotuvchi tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganda esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali Tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho'l va olis joylarda ,tovarlar vaqti-vaqti olib boriladigan joylarda iste'molchini bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi Tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida ,lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o'kazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda Tovar ,anosining bir foizi miqdorida neustoyka(penya) to'laydi.

3.Tovarda kafolat muddatida tipilgan nuqsonlarni sotuvchi iste'molchi tegishli talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida , ishlab chiqaruvchi esa, o'n kun ichida bepul bartaraf e'tishi lozim.

Iste'molchi kafolat muddati tugaganidan keyin tovarning nuqsonlarini bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchiga talab qo'yishga haqli. Bunday talab , bosharti tovarda ishlab chiqaruvchining aybi bilan yo'l qo'lingan jiddiy nuqsonlar aniqlangan bo'lsa , belgilangan xizmat muddati mobaynida , agar xizmat muddati belgilanmagan bo'lsa, o'n yil mobaynida qo'yilishi mumkin.

Uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarni ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste'molchining talabiga binoan nuqsonli Tovar qaytarib

berilgandan keyin uch kun ichida unga ayni shunday markali Tovar berib turiladi. Buning ishlab chiqaruvchi sotuvchi bilan birgalikda shartnoma asosida tvarlarning almashuv fondini nazarda tutishlari shart. Mazkur talablar tatbiq etilmaydigan uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydi.

Tovardagi nuqsonlarni bartaraf etish xususida talab qo'yilgan taqdirda , undan foydalanish kafolat muddati iste'molchining tovardan foydalana olmagan davrga teng muddatga uzaytiriladi. Mazkur muddat iste'molchi nuqsonlarni bartaraf etish talabi bilan murojaat etgan kundan e'tiboran hisoblana boshlaydi.

Agar , sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining tovarni almashtirib berish yoki undan nuqsonlarni bartaraf etish haqidagi talablarini bajarmagan bo'lsa , iste'molchi tovarning xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilib , yetkazilgan ziyon va ma'naviy zararni "Iste'molchilar huquqini himoya qilish to'risida"gi qonunning 20 va 22 moddalariga muvofiq qoplashni talab qilishga haqli.

4. Nuqsonli Tovar ayni shunday markali tovarga almashtirib berilgan vaqtda tovarning narxi o'gargan bo'lsa , qayta hisob-kitob qilinmaydi. Nuqsonli Tovar boshqa markali tovarga almashtirib berilayotganda , agar almashtirilishi kerak bo'lgan Tovar narxi uning o'rniga berilayotgan Tovar narxidan past bo'lsa iste'molchi narxlardagi farqni qoshimcha ravishda to'lashi lozim, almashtirilishi kerak bo'lgan Tovar narxi uning o'rniga berilayotgan Tovar narxidan yuqori bo'lsa, iste'molchiga narxlardagi farq qaytariladi. Bunday hisob kitob chog'ida almashtirilishi kerak bo'lgan Tovar narxi oshgan taqdirda uning talab qo'yilgan paytdagi narxi, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi narxi qo'yiladi.

Shartnoma bekor qilinayotganda Tovar narxi oshgan bo'lsa , iste'molchi bilan hisob-kitob tovarning tegishli talab qo'yilgan paytdagi qiymatiga qarab , narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi qiymatiga qarab amalgam oshiriladi.


Hajmi katta yoki vazni besh kilogramdan ziyod tovarni ta'mirlash , narxini tushirish , almashtirish uchun eltish va iste'molchiga qaytarib keltirib berish sotuvchining (ishlab chiqaruvch) ning kuchi bilan va uning hisobidan amaiga

oshiriladi. Ushbu majburiyat bajarilmagan taqdirda tovarni eltish va qaytarib olib ketish bilan bog'liq xarajatlarni sotuvchi qoplashi shart.

Iste'molchi maqbul sifatli nooziq –ovqat tovarni xarid qilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo'lmasa, pulini qaytarib olishga haqli. Almashtirib olish tartibi va almashtirib berilmaydigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasdiqlaydigan qoidalar bilan belgilanadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari nimalardan iborat?
2. Nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibi tushuntirib bering?
3. tovar nuqsonlarini bepul bartaraf etish qonun qoidalar nimalardan iborat?
4. Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilgan taqdirda u bilan hisob -kitob qilish qanday amalgam oshiriladi?



№7 MAVZU : Iste'molchilar huquqini himoya qilish.

R e j a :

1. Iste'molchilar huquqini himoya qilishda qollaniladigan asosiy hujjatlar.
2. Iste'molchilar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash.
3. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan iste'molchilar huquqlarining himoya qilinishi.
4. Iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Qonunchilik tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, qonunlarni hayotga izchil joriy qilish, barcha xo'jalik sub'ektlarining yuridik normalar va qoidalarga qat'iy amal qilishlarini ta'minlash madaniy – ma'rifiy bozorni shakllantirishning majburiy shartidir" deb ta'kidlagan edilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlanuvchi 9-bobi, 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonuni (Mazkur qonunga O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni, O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuniga muvofiq o'zgartishlar kiritilgan) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 noyabrdagi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 414-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Oldi-sotdi" deb nomlanuvchi 29-bobida oldi-sotdi shartnomasi taraflaridan biri sifatida iste'molchilarning huquqlarini ochib beruvchi belgilar mujassamlashgan.

Davlat iste'molchilarning Tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'ida huquqlarini ,hamda qonun bilan qo'riqlanadigan mahfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi. Iste'molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati boshqaruvi organlari , shuningdek sudlar ta'minlaydi.

Quyidagilar iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir:O'zbekiston standartlashtirish , Monopoliydan chiqarish va raqobatnirivojlantirishdavlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidaqonun hujjatlariga rioya etilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari.

Iste'molchilar huquqlari himoya qilinishi uchun mahalliy hokimiyat organlari : iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini tashkil etadilar:iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan davlat organlari va iste'molchilarning jamoat birlashmalari bilan

hamkorlik qiladilar; iste'molchilarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadilar; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilib sudlarga murojaat etadilar; o'z huquqlari doirasida boshqa vakolatlarni ham amalgam oshiradilar.

Ishlab chiqaruvchi (ijrichi, sotuvchi) istemolchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari ishlab chiqaruvchiga : ishlab chiqarilgan saanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilishi shart ekanligi qonun hujjatlari belgilanganligiga qaramay ishlab chiqargan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan tovarlar realizasiya qilishga va sotishga qabul qilganlik uchun - tovarlarning xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi tegishli davlat boshqaruvi organlarining ushbu tovarlarning iste'mol(foydalanish) uchun yaroqliligi to'g'risida xulosa olingan taqdirda , realizasiya qilish uchun qabui qilingan tovarlar hajmining besh foizi miqdorida va ushbu tovarlarning iste'mol(foydalanish) uchun yaroqsizligi to'g'risidagi xulosa olingan taqdirda , realizasiya qilish uchun qabul qilingan tovarlar hajmining yuz foizi miqdorida , biroq eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'p bo'lmaganmiqdorda;

Yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni realizasiya qilish uchun qabui qilingalik uchun realizasiya qilish uchun qabul qilingan tovarlar hajmining yuz foizi miqdorida <biroq eng kam ish haqining uch yuz baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

Iste'molchilar huquqlarini buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalarni bajarishdan bo'yin tovlaganilk yoki o'z vaqtida bajarmaganlik , shuningdek ularga tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risida axborot taqdim etmaganlik yoki bila turib noto'f'ri ma'lumotlar taqdim etganlik uchun : yuridik shaxslarga --eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorida; jismoniy shaxslarga -- eng kam ish haqining uch baravaridan beshh baravarigacha miqdorida jarima solish huquqiga ega.


Jarima solish ishlab chiqaruvchini yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni bartaraf qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

Tovarlar xavfsiz bo'lishi haqidagi talablarga javob bermaydigan tovarlar tufayli iste'molchilarga zarar yetkazilsa , tovarlar xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1 . Iste'molchilar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash to'g'risida qonunning nechanchi moddasida yozilgan?

2. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi normativ huquqiy aktlarni sanab o'ting.



Uyga vazifa: “Iste’molchilar huquqini himoya qilish to’g’risida”gi qonunning 10 moddasini yodlash va mavzuga doir test savollari tuzib kelish

Foydalaniladigan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T. O'zbekiston 2012
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T. O'zbekiston 1999..
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi. - T. O'zbekiston. 2006.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. - T Adolat, 2006.
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi
6. "Istemolchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun" – 1996 yil

Mundarija

1. Qonunda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar . Iste'mol madaniyati haqida tushuncha.....	6
2.Iste'molchilarning turmush darajasi. Ishlab chiqaruvchilar (ijrochi,sotuvchi), savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari.....	10
3.Mahsulotlar haqida tushuncha. Ishlab chiqaruvchilarning iste'molchilar oldidagi majburiyatlar.....	16
4.Xarid qilish madaniyati. Savdo – sotiq qoidalari.....	20
5.Xizmat ko'rsatish qoidalari.....	25
6.Nuqsonli tovar tushunchasi. Iste'molchilarga nuqsonli tovar (xizmat) sotilganda uning huquqlari	29
7. Iste'molchilar huquqini himoya qilish.....	33

